



“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”

Mavzusidagi II anʼanaviy ilmiy - amaliy
xalqaro anjuman materiallari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

***“O'ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB
MASALALARI VA UNI O'QITISH
METODIKASI MUAMMOLARI”***

mavzusidagi II an'anaviy ilmiy – amaliy

**XALQARO ANJUMAN
MATERIALLARI
1-KITOB**

(13-dekabr 2023-yil)



JIZZAX-2023

badiiy qadriyat yaratib, insonlarni hayratga solish ham yuksak san'atligini hisobga olsak, Halima Xudoyberdiyeva shaxsiyati va ijodi shu kabi jihatlari bilan o'zbek adabiyotida muhim hodisa darajasiga ko'tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.H.Xudoyberdiyeva. Saylanma. –T.: SHarq, 2000. –B.7.

TURK YOZUVCHISI SELIM ILERINING IJODIY FAOLİYATI

*Abdulxayeva Dilnoza Abdukodirovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti magistranti*

1970-yillarga kelib jumhuriyat davri turk adabiyotida hikoyanavislar soni ortib bordi va bunga mos ravishda hikoyalarda turli xil mavzular o'z ifodasini topdi. Bu davrda yozilgan hikoyalarda ijtimoiy-siyosiy masalalar va turli tabaqadagi insonlarning kundalik muammolari yoritilib, 1960-yildan keyin yuzaga kelgan siyosiy voqealar va anarxiya hodisalari qalamga olinadi. Xususan, bu davrda kambag'al aholi qatlaminin yashash uchun kurashi, ayollarning jamiyatdagi o'rni, bolalarga atab yozilgan bir qator hikoyalar ko'zga tashlanadi. Bu davrning eng mashhur hikoyanavislari sifatida Muzaffar Izgu, Firuzan, To'mris Uyar, Adolat Ag'a o'g'li, Pinar Kur, Nazli Eray, Umit Kaftanji o'g'lilarni sanab o'tishimiz mumkin.

60-yillarning oxirlarida adabiyotga hikoyalari bilan kirib kelgan Selim Ileri zamonaviy turk adabiyotida o'zining serqirra ijodi bilan ajralib turadi. Selim Ileri hikoya, roman, ssenariy va drama kabi janrlarda sermahsul ijod qildi. Adib 1949-yil 30-aprelda Istanbulda Suhaylo va Hilmi Ileri oilasida ikkinchi farzand bo'lib dunyoga keldi. Uning o'zidan sakkiz yosh katta Meral ismli opasi bor. Otasi Hilmi Ileri asli Qibrisli bo'lib oilasidan kichik yoshlarida ayrilib qoladi va 16 yoshida Istanbulga keladi. Istanbul Texnika universitetida muhandislik bo'limida ta'lim oladi. Keyinchalik davlat ko'magi bilan Shvetsariyada magistraturada o'qiydi. Bu yerdagi ta'limini tamomlagach Turkiyaga qaytib Istanbul Texnika universitetida ilmiy faoliyatini davom ettiradi va professor darajasini oladi. Selim Ilerining otasi tartib-intizomli, san'atdan ko'ra ko'proq ilmga qiziqishi yuqori bo'lgan inson edi. Uning onasi Suhaylo Ileri esa adapazarilik bo'lib, u adabiyot va san'atga oshno bir uy bekasi edi. Adibning adabiyotga bo'lgan qiziqishi bolalik yillarida onasining unga so'zlab bergan hikoyalari, afsonalari va o'qib bergan romanlariga borib taqaladi. U xotiralarida eslashicha onasi juda ko'p kitob mutolaa qilardi. U o'sha davrlardayoq onasidan tinglagan hikoyalarning xotimasini o'zicha boshqacha bir usulda to'qishga urinardi.

Selim Ileri "Annem için" va "Anılar, ıssız ve yağmurlu" kabi bir qator asarlarida bolalik xotiralarini eslar ekan otasi va onasining bir-birlariga oshiq bo'lib oila qurmaganliklarini va ularning ikki xil dunyo odamlari ekanligini ta'kidlaydi: "İkkita farqli tana, ikkita farqli ruh, go'yo qalb yaqinligi yo'qdek"

[4;9]. Bu esa o'z navbatida oiladagi muhitga va bola ruhiyatiga ta'sir qiladi. Adebning oilasi ziyoli biroq moddiy jihatdan o'rtahol bir oila edi.

Selim Ileri 1955-yilda boshlang'ich maktabga boradi. U maktab yillarida ko'plab fanlardan yaxshi natijalarga erisha olmaydi. 1959-yilda maktabni tamomlab, Galatasaray litseyida o'qishni boshlaydi. 2-kursda Otaturk litseyiga o'qishini ko'chiradi. Litseyda o'qigan yillarida fransuz tili o'qituvchisi Vedat Gyunyol va adabiyot o'qituvchisi Rauf Mutluayning Selim Ileri hayotiga katta ta'siri bo'ladi. U litseyning 2-kursida o'qiyotgan paytida Parida Jalolning "Tor yo'l" romanidan ilhomlanib "Unutilish" romanini yozadi, biroq bu romanni chop ettirish uchun qilgan say-harakatlari zo'ye ketadi va u asarni yirtib tashlaydi.

"Jumhuriyat" gazetasining yosh yozuvchilarni qo'llab-quvvatlashi haqidagi e'loni bo'yicha, "Qorong'u yuzli kunning ziyosi" nomli romanini gazeta tahririyatiga olib boradi. Tahririyat tomonidan roman "tajribasizlik mahsuli" deb topiladi, faqat Selim Ilerining iste'dodli ekanligi ta'kidlanadi. Keyinchalik u ikkinchi romani "Unutilish"ni olib borganida uni "Ramziy" nashriyotiga yubordilar, biroq bu safar nashriyot asarni talabga javob bermasligini ro'kach qilib uni nashr qilishni qabul qilmaydi. Yana bir romanini "Jumhuriyat" gazetasi vositasida "Varlik" nashriyotiga olib boradi. Bu yerda Yashar Nabiyyon mahalliy asarlar chop etilmasligini aytib, romanni o'qib ko'rmasdanoq rad etadi.

"Yangi ufqlar" jurnali muharriri va litseydagi ustoz Vedat Gyungol tavsiyasi bilan endi u hikoyalar yozishni boshlaydi. Jurnalda u Jamil Merich, Farid Edgu, Nermi Uygur, O'rhan Shaiq Go'kyay singari adabiyotchilar bilan tanishadi. 1967-yilda uning birinchi hikoyasi "Urush gullari" nashr qilinadi. Ikki oy so'ngra "Bir skripka" nomli ikkinchi hikoyasi jurnaldan joy oladi. Hikoyada kichik bir bolaning skripkaga ega bo'lish jarayoni aks ettirilgan bo'lib, bu jarayonda bola uchun skripka oddiy musiqa asbobi holatidan chiqib ushalmas orzuga aylanadi. Yozuvchi bu voqea orqali san'atga tashna bir bolakayning istagiga atrofidagi insonlarning e'tiborsizligini, befarqligini, murg'ak qalbga berilgan ilk zarbani aks ettiradi. Ya'ni shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatni namoyon qilindi.

Selim Ileri "Papirus", "Yangi adabiyot", "Yangi jurnal", "Turk tili", "Turkiya daftari", "Millat san'ati", "Namoyish" kabi bir qator jurnallarda e'lon qilingan asarlari bilan mashhurlikka erishadi. 1968-yilda ustoz ko'magida nashrdan chiqqan birinchi hikoyalar to'plami "Shanba yolg'izligi / Kuz bitiklari"ni, otasi bilan samimiy munosabatlari bo'lmaganligiga qaramay, uning xotirasiga bag'ishlaydi. Bu kitobda 8 ta hikoya joy olgan bo'lib, hikoyalarida cheklangan munosabatlar ichida siqilib qolgan insonlar hayoti o'z aksini topadi. 1968-yilda Istanbul universiteti Huquq fakultetiga o'qishga kiradi, biroq o'qishni yarim yo'lda tashlab ketadi [2;10].

1971-yilda Parida Jalolning "Kecha uchidagi nur" romanidan ta'sirlanib yozgan ikkinchi hikoyalar kitobi "Pastirma yozi" nashr qilinadi. Bu kitobda yoshlarning ishtiyoqini, muammoli munosabatlarini, o'rta tabaqa insonlarning dardini, yolg'izligini va najot topishga intilishlarini tasvirlaydi. Biroq bu kitob kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otmaydi.

1970-yillarning boshlarida Selim Ileri Halit Refig' bilan tanishadi. Halit Refig' unga turk kinosining yangi ssenariynavislarga ehtiyoji borligini aytadi va

ssenariy yozishni tavsiya qiladi. Shu tarzda Selim Ileri 1971-yilda birinchi ssenariysi “Jannatning darvozasi”ni yozadi. Bu ssenariy Zeki O’ktan tomonidan qayta nomlanadi va film suratga olinadi. “Bir bog’lam binafsha” esa uning birinchi mustaqil ssenariysi edi. “Tomsiz uylar”, “Parchalanish”, “Dushman ko’zlar” ssenariylari esa filmga aylantirilmay qolib ketadi. 1973-yilda “Doston ko’ngillar” nomli birinchi romani nashr qilinadi. 1975-yilda “Do’stlikning oxirgi kuni” hikoya kitobi nashr qilinadi va bu kitob 1976-yilda “Said Foiq hikoya armug’oni” mukofotini qo’lga kiritadi.

Atila Ilhanning tashviqoti bilan “Bu kecha va har kecha” nomli romanini yozadi va asar Ilhanning taklifiga binoan “Har kecha Bodrum” nomida nashr qilinadi. Bu roman orqali adib katta muvaffaqiyat qozonadi. Selim Ileri bu romanini ichki nutq texnikasida yozadi. Asarda yozuvchi ijtimoiy notinchliklar tufayli tushkunlikka tushgan ziyolilarning izlanishlarini va umidsizliklarini tilga keltiradi. Asar 1977-yilda “Turk tili jamiyati roman” mukofotini qo’lga kiritadi [5;161]. U 1979-yilda “Dunyo” gazetasining san’at sahifasini boshqaradi. Shu yili nashrdan chiqqan “O’lim munosabatlar” juda katta shov-shuvlariga va bahs-munozaralarga sabab bo’ladi. Asarda yozuvchi jamiyat va shaxs, ayol va erkak o’rtasidagi ziddiyatlarini, qadriyatlar va oilaviy munosabatlarning kundan-kunga qadrsizlanib ketayotganligini tasvirlaydi.

1980-yilda “Bir dengizning etaklarida” asarida yozuvchi shaxsiy va ijtimoiy hayotni go’zallik, muhabbat va o’lim uchburchagi doirasida muhokama qiladi. Asarda muallif mahorat bilan o’sha davr siyosiy notinchliklarini shaxsning ichki dunyosini tasvirlash orqali namoyon qiladi. Asar haqida Feridun Andach shunday deydi: “Bu avlod ichida birinchi kitobini (“Shanba yolg’izligi”, 1968) 60-yillarning so’ngida taqdim qilgan Selim Ileri, hozirgi zamon hikoyanavisligining muhim ismlaridan biridir. Bugungi kungacha davom etayotgan hikoyalar qatorida u yangicha tafakkur, til, ifoda va badiiylashtirishning muvaffaqiyatli asarlarini taqdim qildi. “Bir dengizning etaklarida” (1980) uning mahoratini ko’rsatadigan hikoyalar yig’indisini tashkil qiladi” [1;487].

1982-yilda “Eski daftarlarda so’ligan gullar”, 1983-yilda ilk uzun hikoyasi “Oxirgi yoz oqshomi” nashr etiladi. 1983-yilda nashr etilgan “Onam uchun” kitobida esa Altsgeymer kasalligi bilan sakkiz yil kurashib vafot etgan onasi haqida yozadi. Onasi bilan bo’g’liq ko’plab xotiralarini samimiyat, sog’inch va hassoslik bilan ifodalaydi. Bu davr yozuvchining adabiy qarashlariga ta’sir o’tkazadi.

1981-yilda “Yaralangan ishq hikoyasi” nomli ssenariysi filmga aylantiriladi va 1982-yilda Kino yozuvchilari uyushmasi tomonidan “Yilning eng yaxshi ssenariysi” mukofotiga loyiq ko’riladi [5;161]. Keyin esa “Seni qalbinga ko’mdim” va “Ko’l” filmlarining ssenariylarini yozadi.

Holit Ziyo Ushoqligilning “Ta’qiqlangan muhabbat” romanining so’ngi so’zi: “Yashar ekan va o’lar ekan” nomi bilan yozilgan romani “Millat san’ati” jurnali tomonidan “Yil romani” deb topiladi. 1983-yilda “O’lgunimcha senikiman” va 1984-yilda “Yolg’onchi shafaq” nomli romanlari nashrdan chiqadi, ammo bu romanlar o’quvchilarda katta qiziqish uygo’tmaydi. 1985-yilda “Soz, jaz, to’y, namoyish” kitobi bosilib chiqadi.

Yozuvchining “Turkiya Yozuvchilar uyushmasi roman” mukofotiga sazovor bo’lgan “Moviy qanotlaring ila faqat meniki bo’lsayding” asari 1991-yilda nashr qilinadi.

1990-yillarda Selim Ileri teatr sahnalari uchun spektakllar yozishni boshlaydi. Uning birinchi spektakli Johida So’nku hayoti haqidagi “Johida, o’lim va olmos”dir. 1997-yilda “Allohga omonat Jumhuriyat” spektakli “Afifa Jale” va “Avniy Dilligil” mukofotlariga loyiq ko’riladi. 1998-yil sahnalashtirilgan “Mehri Mushfiq: o’lik bir kapalak” spektakli bilan “Davlat artisti” unvonini oladi. 1997-yilda Nahit Sirri O’rikning “Rashk” nomli romanidan ilhomlanib yozgan “Jamil Shavkat Bey/ Oynali javonga ikki begona revolver”, 2000-yilda “So’nmas xonim, kimsasiz o’quvchilar uchun”, 2001-yilda “Bu yoz, ayriliqning ilk yozi bo’ladi” romanlari nashr qilinadi. “Bu yoz, ayriliqning ilk yozi bo’ladi” romani 2002-yilda “O’rxon Kamol roman mukofoti”ni qozonadi.

2006-yilda “Suratni senga yuboryapman” nomli kitobi bilan hikoya yozishga qaytadi. Adibning bu hikoyalari oldingilaridan farqli bo’lib, ularda tashqi dunyodan uzilgan o’z qobig’iga o’ralgan adib o’quvchi bilan suhbatlashadi. O’zining keksayganligi va yozishga qiynalayotgani, o’lim masalasini qalamga oladi. 2007-yilda “Hammasi olov”, “Yopiq iqtisod” va “Istanbul Lola va Sunbul” nomli uchta kitobi nashr qilinadi. 2011-yilda nashrdan chiqqan “Yomg’ir oqshomlari” hikoya kitobida yozuvchi o’zi yaqindan tanigan yozuvchi va ziyolilarning jamiyattan begonalashish va uzoqlashishdagi sarguzashtlarini aks ettiradi. Adib 2021-yilda Erdal O’z adabiyot mukofotini qo’lga kiritadi.

Xulosa qilib aytadiga bo’lsak Selim Ileri onasining hikoyalari ta’sirida uyg’ongan adabiyotga muhabbati tufayli butun hayotini adabiyot va san’atga bag’ishlaydi. Ijodining ilk yillarda turli tanqidlarga uchrashi va omadsizliklariga qaramay ijod qilishdan to’xtamaydi. Tinimsiz harakatlari va ustozlarining qo’llab-quvvatlashlari natijasida turk adabiyotida o’z o’rnini topadi. Selim Ileri o’z asarlarida ijtimoiy muhitga moslasha olmagan, yon-atrofidagi insonlar bilan yaxshi munosabatlar o’rnata olmagan ziyoli qatlam vakillari, talabalar, doimo o’z juftidan mehr-muhabbat va e’tibor kutgan ayollar hayotidan hikoya qiladi. Uning barcha qahramonlari boshqalar bilan mustahkam aloqalar o’rnatishga urinadi, biroq har doim natija salbiy yakun topadi. Ularning taqdiri doimo yolg’izlik va azoblarga duchor bo’lish bilan tugallanadi. Insonlar o’rtasidagi bu yaqinlashish samarasiz bo’ladi. Hayot bu insonlarni ba’zi nuqtalarda uchrashtiradi va yana ayrilib tashlaydi. Yozuvchi buning sababini sevgi-muhabbat bilan har tomonlama o’rab olinmagan muhitida voya yetganini, insonlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarga kundan-kunga darz ketib borayotganligi deb ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Halman T. S. Türk Edebiyatı Tarihi. Cilt.4. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları. Ankara-2018.
2. Harmancı A. Selim İleri’nin Edebi Kişiliği ve Öykücülüğü. Yüksek Lisans Tezi. Selçuk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı. Konya-2006.
3. İleri S. Annem için. Ada Yayınevi. İstanbul-1983.

4. İleri S. Anılar, ıssız ve yağmurlu. Doğan Kitap Yayıncılığı. İstanbul-2002.
5. Necatigil B. Edebiyatımızda İsimler Sözlüğü. Varlık yayınları. İstanbul-1991.

BAXT OBRAZINING POETIK TALQINIDA O'ZIGA XOSLIKNING QIYOSIY TAHLILI

*Toshpo'latov Muhammadqodir Olim o'g'li,
JDPU magistranti*

“Adabiyot – ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tugadi” [1;112], – degan edi hassos yozuvchi Abdulla Qahhor. Haqiqatan, yurakning inja hislari, nozik kechinmalari so‘zning buyuk qudrati ila qog‘ozga muhrlansa, Abdulla Qahhor aytganidek, undan “ko‘ngil rozi bo‘l...”sa, o‘quvchi ijodkor badiiy niyatini anglay oladi yoxud his etadi.

Inson o‘zligini anglamoq barobarida har doim bir haqiqatga duch keladi, ya’ni insonlikning o‘zi – Baxt! Bu nekbin tuyg‘u adabiyotning azaliy va abadiy mavzularidan. Har qanday ijodkor bu mavzuni o‘z badiiy tafakkuri, ijodiy mahorati, o‘z so‘zi bilan, boshqacha aytganda, tasavvur hadlari qadar yoritadi. Xususan, o‘zbek she’riyatida ushbu mavzuda yaratilgan asarlarni badiiy tahlil eta turib, har birida ifodaviy o‘ziga xoslik, mazmuniy teranlik borligini anglash qiyin emas. Shu jihatdan quyida bir qancha shoirlarimizning baxt mavzusiga, Baxt obrazi talqiniga doir manzumalarini o‘zaro tahlil etib, har birining xususiyatlariga to‘xtalamiz.

Xususan, o‘zbek adabiyotida “baxt va shodlik kuychisi” deb e’tirof etilgan atoqli shoir, nosir, dramaturg Hamid Olimjon lirikasida baxt mavzusi yetakchi motivga aylanganining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, shoirning “O‘rik gullaganda” she’rida baxt tushunchasi tabiat manzaralari tasviri bilan uyg‘un holda ifoda qilingan:

*Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar.
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar.
Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.
Men yurganda bog‘larga to‘lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz. [2; 91-92]*

Shoirning lirik qahramonni ko‘rkam bahor bog‘larida tasvirlashi baxt tuyg‘usining ham ko‘klam kabi nafis, gullari yanglig‘ betakrorligiga ishora. Ayni damda, tabiatga xos unsurlar: yellar, qushlar, kurtak, bog‘lar – barchasi lirik qahramon ko‘z o‘ngida baxtning mujassam timsolini yaratadi, unga baxtni anglatadi, baxtdan roz aytadi. Yoki she’rning 7-bandida shoirning tole haqidagi